Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024 yil 27-noyabr, № 245 (8868) Chorshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

IMKONIYATLARDAN SAMARALI FOYDALANISH — HUDUD TARAQQIYOTIDA MUHIM OMIL

Prezident Shavkat Mirziyoyev 26-noyabr kuni Namangan viloyatida investitsiya va tadbirkorlik muhitini rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

O‘tgan o‘n oyda viloyatda 681 ta loyiha bajarilib, 21 mingta ish o‘rni yaratilgan. 21 trillion so‘mlikdan ziyod mahsulot ishlab chiqarilib, 702 million dollarlik eksport qilingan. Yil yakunigacha viloyat iqtisodiyoti 8 foiz o‘sishi kutilmoqda.

Endi kelgusi yilga marra olish zarur. Shu bois hududlarga ishchi guruh yuborilib, tadbirkorlarning takliflari o‘rganilib, rejalar shakllantirilmoqda.

Namangan viloyatida 527 million dollarlik 182 ta yangi loyiha imkoniyati aniqlangan. Masalan, Namangan shahri “Barkamol avlod” mahallasidagi kichik sanoat zonasi kengaytirilsa, 60 million dollarlik charm-poyabzal loyihasini joylashtirish mumkin. Mingbuloqdagi “Namangan” massivida shunday zona tashkil qilinsa, 25 million dollarlik sanoat loyihalariga sharoit bo‘ladi.

Poplik tadbirkor AQShlik hamkorlar bilan 80 million dollar sarmoya kiritib, yiliga 1,8 million tonna flyuorit toshini qayta ishlash taklifini bergan. Natijada 200 ta ish o‘rni, 70 million dollar eksport imkoniyati paydo bo‘ladi. Yana bir korxona 40 million dollar investitsiya kiritib, 5 ming gektarda dorivor o‘simlik yetishtirish, qandolat ishlab chiqarish va turizm maskani tashkil qilish istagini bildirgan.

Ushbu tumandagi sizot suvi yaqin yerlarda sholi, g‘alla, dorivor va ozuqabop ekinlar, Norin tumanidagi meliorativ tik quduqlar atrofida baliq yetishtirish mumkin. Chorkesar, Zarkent va Isparon hududlarida sug‘orish yaxshilanib, chorvadorlarga yer ajratilsa, 100 ming bosh qoramol va echki boqish imkoni bor.

Yangiqo‘rg‘onda Qishloq xo‘jaligi texnikumi tashkil etilib, kartoshkachilik markazi bilan dual ta’lim yo‘lga qo‘yilishi ham malakali mutaxassislar, ham asosiy oziq mahsuloti tayyorlashga xizmat qiladi. Asalarichilik xo‘jaliklari bilan kooperatsiya orqali xonadonlarda asalari boqib, ularni qo‘shimcha daromadli qilsa bo‘ladi.

Yig‘ilishda Namangan viloyati hokimi shu kabi imkoniyatlarni ishga solish bo‘yicha rejalarini taqdimot qildi. Xususan, 2025-yilda Namangan viloyatiga 4 milliard 200 million dollar investitsiya olib kelish, 34 ming ish o‘rni yaratish va 1 milliard dollar eksport qilish mo‘ljallangan.

Viloyatda joriy yil yakunida kambag‘allik darajasini 8 foizdan ham pasaytirish rejalashtirilgan. 2025-yilda 78 ming nafar aholini kambag‘allikdan chiqarib, bu ko‘rsatkichni 5,3 foizga tushirish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, chet elda mehnat migratsiyasida bo‘lgan 100 mingga yaqin kishini yurtimizda ish bilan ta’minlash maqsad qilingan.

Davlatimiz rahbari bu takliflarni ma’qullab, viloyat iqtisodiyotini kompleks rivojlantirish bo‘yicha qaror loyihasini kiritishga ko‘rsatma berdi. Investorlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlab, loyihalari uchun sharoit yaratish, aholini tadbirkorlikka jalb etib, bandlikni ta’minlash muhimligi ta’kidlandi.

TRANSPORT SOHASIDA YANGICHA ISH USLUBI VA ILG‘OR YONDASHUVLAR ZARUR

Prezident Shavkat Mirziyoyev 26-noyabr kuni temir yo‘l va aviatsiya sohasidagi davlat kompaniyalarida transformatsiya jarayonlarining borishiga oid taqdimot bilan tanishdi.

Ham iqtisodiy samaradorlik, ham odamlarga qulaylik nuqtayi nazaridan bu sohada katta o‘zgarishlar qilinmoqda. “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati tarkibida 6 ta mustaqil korxona tashkil etildi. 1 ming 200 ta yangi yuk vagoni olindi, ichki yo‘nalishda yuk tashish vaqti 2 karra kamaydi.

Raqamlashtirish natijasida vagonga buyurtma berish 7 bosqichdan 3 bosqichga, bunga ketadigan vaqt 72 soatdan 12 soatga qisqardi. Toshkent atrofida poyezdlarni o‘tkazish imkoniyati 30 foizga oshdi. Ilgari zarar bilan ishlagan aksiyadorlik jamiyati bu yil 30 milliard so‘m foydaga chiqyapti.

Aviatsiya sohasidagi kompaniyalarda ham o‘sish bor. “Uzbekistan Airways” tizimida aviaqatnovlar 25 foiz ko‘paydi. Mahalliy yo‘nalishlarda samolyotlar soni 8 taga yetib, ichki qatnovlar 2,5 barobarga oshdi. Markaziy Osiyodagi xalqaro tashuvlarda milliy aviakompaniyamiz ulushi 20 foizga yetdi. Yillik yo‘lovchi tashish ko‘rsatkichi 6 million nafardan oshishi kutilmoqda.

“Uzbekistan Airports” samolyotlar, yuk va yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatmoqda. Aeroportlar boshqaruviga xususiy sektor jalb qilingani samara beryapti. Dunyodagi 44 ta aviakompaniya yurtimizga parvozni amalga oshirayapti. Aeroportlar orqali yuk tashish hajmi ham bu yil 22 foizga oshishi ko‘zda tutilgan.

Lekin hali vazifalar ko‘p. Transport yo‘llari qanchalik muhimligini dunyodagi murakkab vaziyat ham ko‘rsatyapti.

Shu bois yo‘nalishlarni diversifikatsiya qilish, tashish jarayonlarini tezlashtirish, transport xizmatlari tannarxini pasaytirish juda muhim.

Yig‘ilishda bu boradagi dolzarb masalalar muhokama qilindi.

– Mamlakatimizda iqtisodiyot, savdo aloqalari yildan-yilga rivojlanyapti. Aholi daromadi, hududlarning turizm salohiyati ham oshyapti. 2030-yilga borib yalpi ichki mahsulotimiz hajmini 200 milliard dollarga yetkazish maqsadini qo‘ydik. Shuning uchun transport “arteriya”lariga alohida ahamiyat berishimiz kerak, – dedi Prezident.

Buning uchun barcha huquqiy-tashkiliy asoslar yaratib berilmoqda. Hozirgacha sohada 25 yil oldin qabul qilingan qonun bo‘yicha ish yuritib kelinar edi. Shu jihatdan, yangi tahrirda imzolangan “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida”gi qonun tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu sohaga xususiy kompaniyalar va investitsiyalarni jalb qilish, infratuzilmani rivojlantirishga keng yo‘l ochadi.

Endi soha rahbarlari ish uslubi va yondashuvlarini keskin o‘zgartirib, natijani ta’minlashi zarur. Buning uchun, avvalo, sohada transformatsiyani jadallashtirish, qurilish va modernizatsiya loyihalarini sifatli bajarish lozim. Xalqaro kredit reytingi olish, davlat kafolatisiz mablag‘ jalb qilish, investitsiyalarni samarali ishlatish ham muhim vazifalar qatorida.

“O‘zbekiston havo yo‘llari” hali aholini rozi qiladigan darajaga yetgani yo‘q. Xalqaro reyting olib, tashqi bozorga chiqish kechikyapti. Oqibatda tannarx yuqoriligi uchun chipta narxida sezilarli o‘zgarish yo‘q. Xarajatlarni qisqartirish bo‘yicha chora-tadbirlar ijrosi sust.

Shu bois konsalting kompaniyasi jalb qilib, transformatsiya bo‘yicha aniq dastur va “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi.

“Uzbekistan Airports” tizimida asosiysi – xizmatlarni ko‘paytirish va xususiy sheriklikni kengaytirish. Samarqand aeroporti xususiy boshqaruvga berilgach, parvozlar va yo‘lovchilar soni 5 barobar oshgan. Endi Namangan, Andijon, Buxoro va Urganch aeroportlarida ham shunday maqsad ko‘zlangan. Yil yakunigacha aeroportlarda qo‘shimcha xizmatlarni 2 karra ko‘paytirish, daromadni 25 foiz oshirish mo‘ljallangan.

Xalqaro bozordan mustaqil resurs jalb qilish, Navoiy aeroporti terminalidan to‘liq foydalanish choralari belgilandi.

Davlatimiz rahbari yig‘ilishda muhokama qilingan uchta kompaniyada raqamlashtirishni jadallashtirish, rejalarni qayta ko‘rib chiqib, iqtisodiy natijadorlikni oshirish bo‘yicha topshiriqlar berdi.

O‘zA.

MUSAFFO TABIAT VA XAVFSIZ MAKON YARATISH USTUVOR MAQSADGA AYLANDI

Ma’lumki, keyingi o‘n yilliklarda butun dunyoda kuzatilayotgan iqlim o‘zgarishlari bugungi kunga kelib global tahdidga aylanib ulgurdi. Bu barcha davlatlarning oldiga dolzarb masalalarni qo‘ymoqda. Shundan kelib chiqib, mamlakatimizda ham atrof-muhitni asrab-avaylash borasida keng ko‘lamli ezgu sa’y-harakatlar amalga oshirilmoqda.

Munosabat

2025-yil O‘zbekistonda “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili” deb e’lon qilinishi zamirida ham ona tabiatni musaffo holida saqlash va kelgusi avlodlarga bekamu ko‘st yetkazishdek ulug‘vor maqsad mujassam. Ayni chog‘da ushbu qaror yangi O‘zbekistonda ona tabiatni asrab-avaylab, ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilayotgan e’tiborning yana bir yorqin ifodasi bo‘ldi, desak, ayni haqiqat.

Yaqinda o‘tkazilgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko‘rib chiqish va Vazirlar Mahkamasining yaqin va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakatlar dasturi muhokamasiga bag‘ishlangan majlisida Prezidentimiz tomonidan yil nomi taklif qilindi.

Albatta, bu taklif bejiz emasdi. Negaki, dunyoning boshqa joylarida bo‘lgani kabi yurtimizda ham havo va suv ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho‘llanish, qazilma yoqilg‘ilarning ko‘p ishlatilishi hisobiga global isish va turli tabiiy ofatlar ko‘payishi kuzatilmoqda. Eng yomoni, bu atrof-muhit va aholi salomatligiga jiddiy ziyon yetkazayotir.

2

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

ISLOHOTLAR IZCHILLIGI — IQTISODIY RIVOJLANISH ASOSI



Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda dastlab quyi palata Spikeri N. Ismoilov o‘tgan haftada mamlakatimiz hayotidagi muhim voqeliklarga to‘xtalib o‘tdi. Xususan, davlatimiz rahbarining 23-noyabr kuni Yangihayot tumaniga tashrifi chog‘ida sanoat korxonalari faoliyati va mahallalardagi bunyodkorlik ishlari bilan tanishgani, shuningdek, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida barpo etilayotgan yangi boqqa tashrif buyurib ko‘chat ekkani, ushbu jarayonda deputatlar ham faol ishtirok etgani alohida ta’kidlandi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan bundan uch yil avval boshlangan “Yashil makon” umummilliy loyihasi chinakam xalq harakatiga aylangani, Prezidentimiz bunda doimo o‘rnak bo‘lib kelayotgani qayd etildi.

2

GENDER TENGLIK:

UMUMINSONIY ME’YORLAR TALABI

Yaqinda BMTning Ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish qo‘mitasi (CEDAW) 40-Umumiy tavsiya (GR40) yo‘riqnomasini e’lon qildi. Ushbu yo‘riqnoma ayollarning qaror qabul qilish jarayonlarida erkaklar bilan teng huquqlarga ega bo‘lishi talab qilingan yangi tavsiyalar bilan to‘ldirilgan. Xususan, unda har qanday sohada, jumladan, davlat, xususiy, siyosiy, iqtisodiy va raqamli sektorlarda ayollar uchun kvota belgilanishi kerakligi ta’kidlangan.

Fikr

CEDAW qo‘mitasi 30 foizlik kvota eskirganligini va bu ayollar uchun kamlik qilishini urg‘ulagani ham e’tiborlidir. Shuning uchun 50/50 gender tenglikka rioya qilish qat’iy tavsiya qilinayotir. Bu holat ayollarning barcha sohada teng huquq va imkoniyatga ega bo‘lishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yo‘riqnomada ayollarning qaror qabul qilish jarayonlarida faol ishtirokini ta’minlash uchun samarali mexanizmlar va qonunchilik asoslari ishlab chiqilishi va mavjudlarini takomillashtirish zarurati ham eslatib o‘tilgan.

Statistikaga ko‘ra ayollar hozirgi kunda jahonda tinchlik muzokaralaridagi rollarning faqat 16 foizini va milliy parlamentlardagi o‘rinlarning 27 foizini egallaydi. Bu raqamlar ayollarning siyosiy va ijtimoiy qarorlar qabul qilish jarayonlarida ishtiroki kamligini ko‘rsatadi. CEDAW qo‘mitasi, o‘z navbatida, agar ayollar uchun teng o‘rin (kvota) ta’minlanmasa, barqarorlik, tinchlik va iqtisodiy taraqqiyot sari olg‘a siljish xavf ostida qolishini ta’kidlaydi.

2

DA’VATKOR SO‘Z QUDRATI



Prezidentimiz o‘tgan hafta yangi tarkibdagi parlamentda bo‘lib o‘tgan qator majlislarda so‘zga chiqib, mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichidagi muhim masalalar bo‘yicha asosiy yo‘nalishlarni belgilab bergani katta tarixiy voqea bo‘ldi. Davlatimiz rahbari nutqlarida bildirilgan fikrlar nafaqat senator va deputatlar, balki shu yurtni Vatani deb bilgan, o‘z faoliyatini mamlakat ravnaqi, el farovonligiga baxshida etgan har bir inson uchun chinakam dasturilamal bo‘ldi, desak, adashmaymiz.

Nigoh

Tarixiy uch kun

Davlatimiz rahbari 18-noyabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi majlisidagi nutqida deputatlarni sharafli maqomga sazovor bo‘lgani bilan qutlar ekan, sohadagi yutuqlarni e’tirof etib, kelgusidagi vazifalarni, yangi marralarni belgilab berdi. Jumladan, xalq vakillari endilikda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlaydigan va aniq ijro mexanizmlariga ega qonunlarni yaratishi, parlament nazoratini to‘laqonli ta’sirchan institutga aylantirishi lozim. Saylov okruglaridagi faoliyatlarida faqat uchrashuvlar tashkil etish, shikoyat va savollarga rasmiy javob berish bilan cheklanib qolmasdan, barcha islohotlarning eng faol ishtirokchisi va targ‘ibotchilari bo‘lishi zarur.

Shuningdek, kelgusi besh yilda Qonunchilik palatasi oldida g‘oyat ulkan vazifalar turibdi. Xususan, qonun ijodkorligi jarayoni, avvalo, jamiyatimizdagi dolzarb muammolar yechimiga, xalqimizning og‘irini yengil qilishga qaratilishi kerak. Yangi davrda parlament chinakam “xalq uyi”, uning quyi palatasi esa g‘oyalar generatoriga, sog‘lom raqobat, bahs va munozaralar maydoniga aylanishi darkor.

Prezidentimiz 19-noyabr kuni Oliy Majlis Senatining birinchi yalpi majlisidagi nutqida ham qator g‘oya va takliflarni ilgari surdiki, ularning har biri xalqimizning azaliy orzu-maqsadlari ro‘yobiga xizmat qiladi. Masalan, endi Senat qonunlarni muhokama qilishda yangicha mexanizmlarni joriy etishi zarur. Ayniqsa, qonun ijodkorligi jarayoniga mahalliy Kengashlarni keng jalb etish, har bir qonun bo‘yicha ularning fikrini olish amaliyotini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga ega. Senat mahalliy Kengashlar faoliyatini tizimli tahlil qilib, ularga ko‘maklashib borishi kerak. Umuman, senator mamlakatimizning har bir hududida amalga oshirilayotgan islohotlarga o‘zini daxldor his qilishi, ularning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun jon koyitishi lozim. Zero, Yurtboshimiz ta’biri bilan aytganda, ***davlat va xalq xizmatchisining – u senator yoki deputat bo‘ladimi, hokim yoki vazir bo‘ladimi – rahbarlik mas’uliyatini o‘z zimmasiga olganidan so‘ng beg‘am-beparvo, loqayd bo‘lib yurishga, huzur-halovatga berilib yashashga ma’naviy haqqi yo‘q.***

Davlatimiz rahbarining 20-noyabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan majlisidagi ishtiroki ham tarixiy voqelik bo‘ldi. Unda Shavkat Mirziyoyev yangi Hukumat, barcha rahbarlar oldidagi eng muhim vazifalarga e’tibor qaratdi. Jumladan, makroiqtisodiy muvozanatni saqlab, kelgusi besh yilda iqtisodiy o‘sish sur’atini 6-7 foiz atrofida ta’minlash zarur. Hukumat 2030-yilgacha ishsizlikni xalqaro e’tirof etilgan daraja – 5-6 foizdan oshirmaslik bo‘yicha dolzarb vazifalarni ham samarali hal etishi lozim. Iqtisodiyot va aholi daromadlarini o‘stirishda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan sanoat tarmoqlariga alohida ahamiyat qaratish kerak. Shu bilan birga, iqtisodiyotda xususiy sektorning ulushini 85 foizga yetkazish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, sog‘liqni saqlash, ta’lim va sportni rivojlantirish bo‘yicha katta dasturlarni samarali va to‘liq amalga oshirish – hamisha Hukumatning kun tartibida turishi kerak bo‘lgan asosiy vazifalar.

3

Mushohada

KONSTITUTSIYAVIY YANGILANISHLAR

zamirida “Inson qadri uchun” tamoyili mujassam

So‘nggi yillarda mamlakatimizda inson qadrini yuksaltirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Zero, inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas.

Ta’bir joiz bo‘lsa, davlatimiz rahbarining “Inson qadri uchun” degan tamoyilga asoslanib olib borayotgan siyosati davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, qolaversa, jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma’naviy merosiga asoslangan, desak, mubolag‘a emas.

Jahon adabiyotida benazir o‘rin tutgan, butun turkiy xalqlarning tarixida o‘zining umuminsoniy g‘oyalarga yo‘g‘rilgan asarlari bilan o‘chmas iz qoldirgan Alisher Navoiyning asarlarida inson qadri, sha’ni, obro‘si nihoyatda ulug‘langan. Hatto u o‘zining davlat ishlaridagi faoliyatida ham insonlarga har tomonlama xizmat qilishni oliy qadriyat deb bilgan.

3

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 27-noyabr

MUSAFFO TABIAT VA XAVFSIZ MAKON YARATISH USTUVOR MAQSADGA AYLANDI

1 Ana shunday bir sharoitda mamlakatimiz tomonidan zarur choralar ko‘rilayotganini alohida ta’kidlash zarur. Masalan, birgina “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida minglab gektar yashil hududlar barpo qilinyapti, yangi bog‘lar yaratilyapti. Shularga mos ravishda Orol fojiasi oqibatlarini yumshatishga yo‘naltirilgan ezgu sa’y-harakatlar ko‘lami yil sayin kengayib borayotganidan nafaqat yurtdoshlarimiz, balki xorijliklar ham yaxshi xabardor. Cho‘lga aylangan hududda bugun butalar baravj o‘sayotgani ko‘rgan ko‘zni quvontirishi, shubhasiz.

Davlatimiz rahbari yuqorida ta’kidlab o‘tilgan majlisda Hukumatning oldiga yil nomidan kelib chiqadigan dasturni ishlab chiqish vazifasini qo‘yarkan, uning asosiy jihatlarini ham belgilab berdi. Mazkur davlat dasturida “yashil” texnologiyalarni joriy etish, suvni tejash, ko‘kalamzor hududlarni keskin ko‘paytirish, Orol fojiasining oqibatlarini yumshatish, chiqindilar muammosini hal qilish, eng muhimi, aholi salomatligini mustahkamlashga qaratilgan vazifalar ustuvorlik kasb etadi.

Biroz ortga chekinish bo‘lsa-da, aslida mamlakatimizning go‘zal tabiati, musaffo havosi asrlar davomida barchani maftun etib kelgani, ammo sanoat rivojlanishi, energiya resurslariga talabning ortishi, tabiatga munosabat yomonlashuvi iqlim o‘zgarishlari, atrof-muhit ifloslanishi, suv taqchilligi singari muammolarni keltirib chiqarganini yana bir bor ta’kidlamoqchimiz. Nega deganda, har bir eslatma barchamizni yanada hushyor bo‘lishga undaydi.

Xabaringiz bor, oxirgi yillarda ana shu masalalarga yechim topish uchun “Yashil



makon” umummilliy loyihasi hayotga joriy etilishi xalqimizning azaliy qadriyatlaridan biri bo‘lgan bo‘sh yerga ko‘chat ekish, bog‘-rog‘lar barpo etish an’analarini qayta jonlantirdi. Odamlarda ona tabiatga daxldorlik tuyg‘usini yanada kuchaytirdi.

O‘z navbatida, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish g‘oyasi ilgari surilib, energiya resurslaridan unumli foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga urg‘uni kuchaytirish, iqlim o‘zgarishlari oqibatlarini yumshatish, tabiiy ekotizimni asrash, iqlim o‘zgarishi sharoitida samarali, resurs tejamkor va ekologik xavfsiz iqtisodiyotni ta’minlash choralari ko‘rilayotgani diqqatga sazovor.

Tabiiyki, yangi yilga mo‘ljallangan davlat dasturi hayotga tatbiq etila boshlangach, “Yashil makon” umummilliy loyihasi hamda “yashil” iqtisodiyot yo‘nalishlarida ezgu sa’y-harakatlarimizning ko‘lami yanada kengaydi. Bu esa yangi O‘zbekistonni kelgusi avlodlar uchun musaffo tabiat va xavfsiz makon qoldirishdek ustuvor maqsadga yanada yaqinlashtiradi.

Shu ma’noda, mazkur yo‘nalishdagi ezgu amallar biz, xalq vakillarining ham zimmasiga katta mas’uliyat yuklashini yaxshi his etamiz.

Sayyora ABDIKARIMOVA,
Oliy Majlis Senatining
Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya qo‘mitasi raisi o‘rinbosari.

MAMLAKATIMIZ KO‘KALAMZOR BO‘LSIN...

Xalqimizda azaldan bog‘-rog‘lar barpo etish, gul ko‘chatlar o‘tqazish, qo‘yingki, yon-atrofni ko‘kalamzorga aylantirish qadriyatga aylangan. Muhimi, bu qadriyat oxirgi yillarda, yanayam aniqrog‘i, bundan uch yil burun boshlab berilgan “Yashil makon” umummilliy loyihasi timsolida ham chinakam xalq harakati sifatida shakllandi.



Agar ushbu loyiha doirasida amalga oshirilgan ishlar va istiqboldagi vazifalarni bir qur nazardan o‘tkazsak, u bor mohiyati bilan gavdalanadi. Birgina misol: joriy yil bahor mavsumida yurtimiz bo‘ylab 127 million tupdan ortiq daraxtlar ekilgan. Bu har bir hududga o‘rtacha 8 – 10 million tup atrofida ko‘chat to‘g‘ri keladi, degani.

Shu o‘rinda mamlakatimizda ekologiya va atrof-muhitni muhofazalash, yashillikni ko‘paytirish, suv taqchilligining oldini olishga qaratilgan ezgu amallar jahon hamjamiyati tomonidan ham tan olinayotganligini ta’kidlab o‘tish joiz. Ayni chog‘da davlatimiz rahbarining yuqori minbarlardan turib ilgari surgan xalqaro darajadagi ekologik tashabbuslari BMT tomonidan to‘liq qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bu bejiz emas. Bugun butun dunyo ko‘plab ezgu ishlar barobarida, “Yashil makon” umummilliy loyihasi natijalarini ham ko‘rib-bilib turibdi. Qolaversa, dunyo jamoatchiligi loyiha doirasida bajarilgan ishlar nafaqat O‘zbekiston, balki mintaqa davlatlari, umuman, Yer sayyorasi uchun birdek manfaatli ekanligini yaxshi tushunadi.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi hayotdan chuqur o‘rin egallashida Prezidentimizning jonkuyarligi va xalqimizga namuna bo‘layotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Barchamizga yaxshi ayonki, bundan oldingi yillarda u kishining tashabbusi va bevosita ishtirokida Yangi Toshkent, Sergeli, Chilonzorda ko‘chatlar ekilgan edi. Bugun bu nihollar o‘zini tutib olib, shahrimiz havosini yaxshilashga hissa qo‘shmoqda.

Kuni kecha poytaxtimizning Bektemir tumanida, Toshkent halqa yo‘li bo‘yida shaxsan Prezidentimiz yetakchiligida yashil hududga asos solindi. Roppa-rosa 100 gektar maydonni egallagan ushbu hududda ikki yilda jami 100 ming tup daraxt va buta ko‘chatlari o‘tqazilishi ko‘zda tutilgan. Ularning baravj o‘sishini ta’minlash maqsadida bu yerda 3 ta sun’iy suv havzasi va 12 ta quduq barpo qilinganini ham aytib o‘tish zarur.

Bu kabi ezgu ishlar yurtimizning barcha hududida olib borilmoqda. Ota-bobolarimiz an’anasini izchil davom ettirgan holda ko‘chat ekishda 7 yoshdan 70 yoshgacha bo‘lgan barcha aholi qatlami o‘z hissasini qo‘shayotganligi, ayniqsa, e’tiborga molik. Chunki bu kabi tadbirlar xalqimizni bir maqsad yo‘lida birlashtirishi bilan ham qimmatlidir.

Mazkur yo‘nalishdagi rejalar yanada salmoqli. Prezidentimiz alohida ta’kidlaganidek, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida har yili 200 million tup ko‘chat ekish ishlari izchil davom ettiriladi. Bu orqali 2030-yilga qadar yurtimizda yashillik darajasini 30 foizdan oshirish ko‘zda tutilgan. Maqsad esa aniq – mamlakatimiz yashillikka burkansin, ko‘kalamzor bo‘lsin...

Qobul TURSUNOV,
Oliy Majlis Senatining
Byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi raisi o‘rinbosari.

ISLOHOTLAR IZCHILLIGI – IQTISODIY RIVOJLANISH ASOSI



1

«Botanika bog‘lari» va ularning yerlarini xususiylashtirish taqiqlanadi

Majlisda aholining madaniy hordiq va dam olish maskanlari muhofazasini kuchaytirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o‘qishda konseptual jihatdan ko‘rib chiqildi.

Qonun loyihasi “Adolat” SDP va Ekologik partiya fraksiyalari a’zolari tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilgan va quyi palataga kiritilgan.

Majlisda qonun loyihasining dolzarbligi va hayotiy zaruratiga e’tibor qaratildi.

Ta’kidlanganidek, so‘nggi yillarda davlat mulki hisoblangan umumiy foydalanishdagi bog‘lar, sayilgoh, xiyobon va daraxtzorlar hududida bino-inshootlarni qurish kengayib borayotgani ko‘p yillik daraxtlarning kesilishiga, atrof-muhit ifloslanishiga, oqibatda aholining haqli e’tiroziga sabab bo‘layotgan edi.

Istirohat bog‘lari yerlarining mahalliy hokimiyat zaxirasiga olinishi va keyinchalik begonalashtirish amaliyoti qo‘llanilayotgani natijasida esa bog‘lar hududi qisqarib ketmoqda. Bugungi kunda madaniy hordiq maskanlari va ular hududlarining huquqiy himoyasi yetarli darajada mustahkamlanmagani yuqoridagi kabi holatlarga sabab bo‘layotir.

Shu bois qonun loyihasida madaniy hordiq va dam olish maskanlari va ular joylashgan yerlarni xususiylashtirish, bunday obyektlar hududida bino-inshoot qurilishini taqiqlovchi qat’iy normalar kiritilyapti. Jumladan:

– madaniy hordiq va dam olish maskanlarini, ularning yerlarini hamda ushbu yerlardagi bino-inshootni begonalashtirish;

– madaniy hordiq va dam olish maskanlari hududini qisqartirish, ularda bino-inshoot qurish (yengil turdagi obyektlar bundan mustasno) yoki mavjud bino-inshootni qurilish osti maydonini kengaytirish taqiqlanmoqda;

– bu turdagi huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik kuchaytirilmoqda.

Shuningdek, “botanika bog‘lari” muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ro‘yxatiga kiritilyapti. “Botanika bog‘lari” va ularning yerlarini ham begonalashtirish, ularning hududida bino-inshootlar qurish yoki qurilish osti maydonlarini kengaytirish taqiqlanmoqda.

Munozaralar davomida deputatlar qonun loyihasida nazarda tutilayotgan ayrim normalar bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalari, takliflarini bildirdi. Jumladan, deputat Zafar Xudoyberdiyev loyihaning konsepsiyasi bilan bog‘liq masalani o‘rtaga tashladi. Ya’ni ushbu hujjatning maqsadiga qaraladigan bo‘lsa, belgilanayotgan norma poytaxt, viloyat va tumanlar markazlaridagi sayilgoh, xiyobon, bog‘lar hududlari va ularda ekilgan daraxtlar muhofazasini kuchaytirish to‘g‘risida ketyapti. Bundan anglashiladiki, hujjat faqatgina poytaxt, viloyat va tumanlar markazlaridagi madaniy hordiq maskanlari to‘g‘risidami yoki barcha shu turdagi maskanlarga ham taalluqlimi, degan savolni keltirib chiqaradi. Qolaversa, qonun loyihasi nomi bilan konsepsiyada keltirilayotgan jihatlar ham bog‘lanmagan.

Bu bo‘yicha qonun tashabbuskorlaridan javoblar olingach, mas’ul qo‘mitaga loyihani ikkinchi o‘qishga tayyorlashda soha mutaxassislari bilan birgalikda mavjud noaniqliklarni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar berildi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o‘qishda qabul qilindi.

2025-yil uchun asosiy moliyaviy hujjat ko‘rib chiqildi

Deputatlar “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonun loyihasini birinchi o‘qishda ko‘rib chiqdi.

Majlisda qonun loyihasi yuzasidan Bosh vazir o‘rinbosari – Iqtisodiyot va moliya vaziri J. Qo‘chqorov ma’ruza qildi.

Ta’kidlanganidek, 2025-yil uchun Davlat byudjeti to‘g‘risidagi qonun loyihasida davlatning fuqarolar oldidagi barcha ijtimoiy majburiyatlarini bajarish uchun yetarli miqdorda mablag‘ ajratilgan, shu jumladan, ish haqi, pensiya va nafaqalarni o‘z vaqtida to‘lash hamda inflyatsiya darajasidan kam bo‘lmagan miqdorda oshirib borish ko‘zda tutilgan.

Loyihada aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish uchun Davlat byudjeti xarajatlarining ijtimoiy yo‘naltirilganligi saqlab qolinmoqda. Xususan, kambag‘allikni qisqartirishga qariyb 22 trln. so‘m mablag‘ ajratilmoqda. Ijtimoiy himoyaga ajratilayotgan mablag‘larning manzilliligini kuchaytirish va samaradorligini ta’minlashga qaratilgan choralar loyihada o‘z aksini topgan.

Qonun loyihasida 2025-yil uchun asosiy soliq va bojxona stavkalarini o‘zgartirmasdan saqlab qolish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, qonun loyihasi “yashirin iqtisodiyot”ni qisqartirish borasida qo‘shimcha choralar ko‘rish orqali daromadlar bazasini yanada kengaytirish, soliq, bojxona va byudjet siyosatini bosqichma-bosqich Jahon savdo tashkilotining talablariga uyg‘unlashtirish masalalarini ham o‘z ichiga olgan.

Qayd etilganidek, O‘zbekiston iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulotning real o‘sish sur’ati kelgusi yilda 2024-yilga nisbatan 6 foiz va aholi jon boshiga 3251 dollarni tashkil etishi ko‘zda tutilmoqda. Shuningdek, o‘sish sur’atlari sanoatda 6,1 foiz, qishloq xo‘jaligida 4,1 foiz, bozor xizmatlarida 14,5 foiz, qurilishda 14,2 foiz bo‘lishi prognoz qilinmoqda. Inflyatsiya darajasi 7 foiz bo‘lishi kutilmoqda.

Deputatlar tomonidan qonun loyihasida soliq va byudjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari jamiyat rivojlanishi va tadbirkorlik faolligining yanada oshishiga xizmat qilishi alohida qayd etildi. Xalq vakillari 2025-yilda konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlari prognozi 431,1 trln. so‘m, xarajatlari prognozi 480,3 trln. so‘m miqdorida, konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3,0 foiz, tashqi qarzning cheklangan hajmini 5,5 mlrd. AQSh dollari miqdorida belgilash ko‘zda tutilganligi mamlakatda moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilishini alohida e’tirof etdilar.

Loyihada “Natijaga yo‘naltirilgan byudjet” tizimini bosqichma-bosqich joriy etish maqsadida byudjet xarajatlarini rivojlantirish dasturlariga muvofiq amalga oshirish, tashabbusli byudjetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirishga qaratilgan tadbirlar deputatlar e’tiborida bo‘ldi. Xususan, kelgusi yildan tashabbusli byudjet jarayonida majburiy ovoz to‘plashga qarshi aniq choralar belgilanadi. Bundan tashqari, loyihada o‘rta muddatda yashil byudjetlashtirish islohotlarini jadallashtirish ko‘zda tutilgan.

Sharofiddin NAZAROV,
Qonunchilik palatasining
Byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi raisi:
– Yangi chaqiriqdagi deputatlar tarkibida iqtisodchilar ulushi 33 foizni tashkil qilishi 2025-yilga mo‘ljallangan byudjet va soliq siyosatiga oid muhokamalarning sifat va saviyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Buni kuni kecha bo‘lib o‘tgan fraksiyalar va qo‘mitalar muhokamalarida 100 dan ortiq savollar, 10 dan ortiq konseptual ahamiyatga ega bo‘lgan aniq taklif va tavsiyalar berilgani misolida ko‘rish mumkin. Qolaversa, 2025-yil uchun Davlat byudjeti to‘g‘risidagi qonun loyihasi konsepsiyasiga munosabatni shakllantirishda oldingi chaqiriq deputatlarining ham hissasi bor, albatta.



Muhokama davomida deputatlar tomonidan byudjet daromadlarini oshirish, soliq bazasini yanada kengaytirish, yashirin iqtisodiy faoliyatni qisqartirish, byudjet mablag‘laridan foydalanishda samaradorligini oshirish yuzasidan o‘ndan ortiq aniq taklif va tavsiyalar berildi.

Xususan, **O‘zLiDeP fraksiyasi** qonun loyihasini konseptual jihatdan qo‘llab-quvvatlagan holda loyihada tovarlar (xizmatlar) ni eksportga realizatsiya qilishdan olingan daromadlar bo‘yicha foyda solig‘i va aylanmadan olinadigan soliq imtiyozlarini bekor qilinishining mamlakat eksport salohiyatiga ta’siriga oid o‘z fikrlarini bildirdi.

Shuningdek, deputatlar og‘ir vaziyatga tushgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni aniqlash, ularga manzilli ijtimoiy va moddiy yordam ko‘rsatish uchun Bolalarni qo‘llab-quvvatlash jamoat fondiga ajratilgan mablag‘lar fondning asosiy vazifasini bajarishga yetarli emasligini asoslab, Fondga ajratilgan mablag‘ miqdorini qayta ko‘rib chiqishni taklif etdi.

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi a’zolari davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik subyektlariga berilgan soliq imtiyozlari va ajratilgan subsidiyalarning natijadorligi qay darajada ekaniga qiziqib, bu imtiyozlar ta’lim sohasida raqobatdoshlikni oshirish hamda ta’lim sifatini yaxshilashga nechog‘li ta’sir ko‘rsatayotganiga oid fikrlarini bildirdi.

Deputatlar kinematografiya sohasini yangi bosqichga ko‘tarish, milliy davlatchiligimizning uch ming yildan ziyod tarixini, buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma’naviy merosini aks ettiruvchi filmlar turkumini yaratish maqsadida loyihada “Tirik tarix” filmlar turkumini yaratish dasturini, shuningdek, badiiy havaskorlik jamoalarining madaniy dasturlarini amalga oshirishga mablag‘larni ko‘paytirish zarurligini ta’kidlab o‘tdilar.

“Adolat” SDP fraksiyasi a’zolari tibbiyot sohasiga ajratilayotgan mablag‘larni sarflashda respublikaning chekka, borish qiyin bo‘lgan har bir qishloq hududida aholi sonidan qat’i nazar, alohida tibbiyot muassasasi faoliyatini tashkil etish ishlarini yakunlash, yangidan tashkil qilingan perenatal markazlariga belgilangan tartibda shtat birliklarini ajratish masalasiga alohida e’tibor qaratishdi.

O‘zXDP fraksiyasi a’zolari aynan bir turdagi gazlangan ichimlikni ishlab chiqarishda shakar yoki boshqa shirinlantiruvchi modda qo‘shilganligini aniqlash soliq ma’murchiligida murakkabliklar keltirib chiqarishini hamda soliqdan qochish holatlarining oldini olish maqsadida tabaqalashtirilgan aksiz solig‘ini belgilashdan ko‘ra ikkala turdagi ichimliklar uchun joriy yildagi bir xil stavkani (1 litr uchun 500 so‘m) saqlab qolish taklifini ilgari surdilar.

Ekologik partiya fraksiyasi a’zolari kelgusi yilda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi mamlakatimizda ekologik vaziyatni yaxshilash, garmsel shamollari va chang-qum bo‘ronlarining atrof-muhitga zararli ta’sirlarining oldini olish maqsadida rejalashtirilgan tadbirlar o‘ta muhimligini hisobga olgan holda ajratilgan mablag‘lar miqdorini qayta ko‘rib chiqishni taklif etdi.

Yuqoridagi savollar yuzasidan Hukumat vakillarining tegishli javoblari eshitildi. Mazkur ko‘tarilgan masalalar qonun loyihasini mas’ul qo‘mitada ikkinchi o‘qishga tayyorlash jarayonida, albatta, ko‘rib chiqilishi ta’kidlandi.

Siyosiy partiyalar fraksiyalarining fikrlari eshitilib, Davlat byudjeti to‘g‘risidagi qonun loyihasi birinchi o‘qishda konseptual jihatdan qabul qilindi.

O‘zaro manfaatli aloqalar yanada kengayadi

Majlisda “O‘zbekiston Respublikasi bilan Tojikiston Respublikasi o‘rtasida ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi Shartnomani (Dushanbe, 2024-yil 18-aprel) ratifikatsiya qilish haqida”gi qonun loyihasi ko‘rib chiqildi.

Qayd etilganidek, mazkur Shartnomada orqali ikki davlatning mustaqilligi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishiga doir shartnomaviy-huquqiy asoslarni mustahkamlash maqsad qilingan.

O‘zbekiston va Tojikiston o‘rtasida ittifoqchilikning o‘rnatilishi Markaziy Osiyoda tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlashda ikki tomonlama munosabatlarni yuqori darajaga olib chiqadi. Shuningdek, barcha sohada o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishga zarur imkoniyatlar yaratadi.

Majlisda qonun loyihasi qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Ziyoda ASHUROVA
(“Xalq so‘zi”).

GENDER TENGLIK: UMUMINSONIY ME’YORLAR TALABI

1 Shuningdek, ayollar rahbarlik lavozimlarida ham ozchilik bo‘lib, ular jahon bo‘yicha 28 foizdan oshmaydi. Iqtisodiyot va texnologiya sohalarida esa ayollar ko‘p holatlarda rivojlanishga to‘sqinlik qiluvchi muammolarga duch kelmoqda. Bu holatlar ayollar uchun imkoniyatlarni yanada cheklaydi va ularni ishga yondashishda ko‘plab to‘siqlarga olib keladi.

CEDAW qo‘mitasi inklyuziv vakillikka erishish uchun ayollarning faol ishtirokini talab qiladi. Bu yo‘riqnomada gender tenglikni umuminsoniy me’yor sifatida belgilash va ayollarning fuqarolik jamiyatidagi faolligi muhim ekani ta’kidlanadi. Shuningdek, qo‘mitaning tavsiyasiga ko‘ra davlatlar gender tenglikni ta’minlash uchun samarali qonunchilikni qabul qilishi va ayollarning saylovlar va qarorlar qabul qilish organlaridagi ishtirokini kuchaytirishi kerak.



Xo‘sh, bu bora bizdagi vaziyat qanday?

Mamlakatimizda Barqaror rivojlanishning beshinchi maqsadini amalga oshirish doirasida gender tenglikni ta’minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan 9 ta vazifa ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘tgan davrda bu borada salmoqli ishlar amalga oshirildi.

So‘nggi yillarda gender tenglikni ta’minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish borasidagi ishlar quyidagi yo‘nalishlarda olib borilmoqda:

● ayollar huquqlariga doir qonun hujjatlarini takomillashtirish;

● ularni himoyalashning institutsional asoslarini kuchaytirish;

● aholining gender tenglik va ayollar huquqlari bo‘yicha xabardorligini oshirish;

● huquqni qo‘llash amaliyotida ularga rioya etilishini ta’minlash uchun mas’ul mansabdor shaxslarni tegishli huquqiy me’yorlar asosida o‘qitish.

Shularga mos ravishda Prezidentimizning xotin-qizlar huquqlarini ta’minlash, xususan, gender tenglik hamda ayollarni zo‘ravonlik va zulmdan himoyalash, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish va maqomini oshirishga yo‘naltirilgan Farmon va qarorlari qabul qilinib, hayotga izchillik bilan tatbiq etilmoqda.

Ayni sa’y-harakatlar amalda o‘z samarasini bermoqda. Buni yaqinda bo‘lib o‘tgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyat, Toshkent shahar va tuman (shahar)lar Kengashlariga saylovlar natijalari misolida ham ko‘rib turibmiz.

Unga ko‘ra Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga yangidan saylangan deputatlarning 38 foizini xotin-qizlar tashkil etdi. Bu yurtimiz tarixida eng yuqori ko‘rsatkich bo‘lib, avvalgi chaqiriqda ayol deputatlar 32 foizni tashkil etgandi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyat, Toshkent shahar va tuman (shahar)lar Kengashlariga yangi saylangan deputatlarning 32,6 foizi xotin-qizlardan iborat.

Natijalar chakki emas, ammo hozirgi tezkor davr yanada ko‘proq harakat qilishni talab etmoqda. BMT qo‘mitasi yo‘riqnomasi ham ushbu zarurat bois ishlab chiqilgan bo‘lib, xalq vakili sifatidagi faoliyatimizda uning qoida va talablarini jamiyatimizga keng tatbiq etish choralarini ko‘ramiz. Zero, CEDAW 40-Umumiy tavsiyasida global muammolarni samarali hal qilishda ayollarning teng ishtirokini ta’minlashning muhim ahamiyati yana bir bora ko‘rsatilishidan tashqari, shu orqali butun jamiyatni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan rivojlantirish maqsadlari belgilangan.

Shu ma’noda, bu yo‘riqnomadagi ayollarning barcha sohadagi faolligini rag‘batlantirish va ularga teng huquqlar berish orqali jamiyatlarda adolatni qaror toptirish va ularni barqaror rivojlantirish O‘zbekistonning ustuvor maqsadlariga ham uyg‘un ekanligini ta’kidlamoqchimiz. Bu esa biz, parlament vakillaridan ushbu vazifalarni bajarishda faollikni talab etadi.

Gulnora MA’RUFOVA,
Oliy Majlis Senati a’zosi.

Davlat madaniyat muassasalari va tashkilotlari xodimlarining ish haqi 2025-yil 1-yanvardan boshlab 20 foizga, 1-iyuldan yana 15 foizga oshiriladi.

DA’VATKOR SO‘Z QUDRATI



Prezidentimiz tomonidan o‘rtaga tashlangan g‘oyalar, ilgari surilgan tashabbuslar bizni atrofimizda bo‘layotgan o‘zgarishlarga teran nigoh bilan qarashga, zimmamizdagi vazifalarga zamon talablaridan kelib chiqqan holda mutlaqo yangicha yondashishga undadi.

Biz bugun buyuk evrilishlar davrida yashayapmiz. Jonajon Vatanimiz kundan-kunga rivojlanib, jahon hamjamiyatida o‘zining munosib o‘rnini egallamoqda. Yuz yillarda bir keladigan mana shunday mas’uliyatli pallada Prezidentimiz rahnamoligida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda faol ishtirok etish bugungi avlodning tarixiy missiyasidir.

Guhari sharifroq yo‘q ondin...

Hayotining asosiy qismini jurnalistika sohasiga bag‘ishlagan inson sifatida ishonch bilan aytishim mumkinki, ommaviy axborot vositalari (OAV) xodimlari uchun ham bugungidek mas’uliyatli davr hech qachon bo‘lmagan. Bugun jurnalist yuz berayotgan o‘zgarishlarni chetdan kuzatib, yoritib boradigan solnomachi emas, balki ularning bevosita ishtirokchisidir. Biz o‘z so‘zimiz bilan odamlarning dunyoqarashini shakllantirish, el-yurt taqdiriga daxldorlik, mas’uliyat tuyg‘ularini kuchaytirish, ularni ezgu maqsadlar yo‘lida harakatga undash, shu orqali kechayotgan jarayonlarga ta’sir ko‘rsatish kuchiga egamiz.

Bu haqda gap ketar ekan, jurnalistikaning asosiy quroli – so‘zning qudratini anglash va undan samarali foydalanish masalasiga alohida to‘xtalish joiz. Zero, bu xalqimizning huquqiy demokratik davlat, ochiq va erkin fuqarolik jamiyati qurishga qaratilgan ezgu maqsad-muddaolariga hamohangdir.

Nega deganda, so‘zning qudratini chuqur idrok qilgan inson uni behuda sarflamaydi, aksincha, yaxshilikka, bunyodkorlikka safarbar etadi. Buyuk shoir va mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy: *“So‘zdurki, nishon berur o‘lukka jondin, So‘zdurki, berur jong‘a xabar jonondin”* der ekan, birgina kalomning jisman tirik bo‘lsa-da, ma’nan o‘likka aylangan insonga qayta jon baxsh etish qudratini, uning jonon, ya’ni hayot mohiyati, mag‘zini anglab, mazmunli umr kechirishiga turtki bo‘lishini e’tirof etadi.

Ezgu so‘z kishi qalbini nur kabi yoritar, o‘tkinchi dunyoning oqu qorasini tafakkur qilishga undar ekan, uni turli yovuzliklardan, adolatsizliklardan, noinsoniy xatti-harakatlardan asraydi. O‘zgalarni kamsitish, haq-huquqlarini toptash, buzg‘unchiligu vayronkorliklardan qaytaradi. Shu bois so‘zdan sharifroq, muqaddasroq, kuchliroq tushuncha yo‘q, deb biladi hazrat Navoiy:

Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhari sharifroq yo‘q ondin.

Zohiran go‘zallashgan, siyratan yangilangan O‘zbekistonda bugun ommaviy axborot vositalari vakillari so‘zning beqiyos qudratidan, o‘z bilim va mahorati, qobiliyatidan emin-erkin foydalanish imkoniyatiga ega. Media sohasi vakillarining huquqlari Konstitutsiya darajasida mustahkamlab qo‘yildi.

Jumladan, Asosiy Qonunimizning 81-moddasiga ko‘ra, ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ish olib boradilar. Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo‘lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi.

Shu bilan birga, bunday erkinlik jurnalistlarning “o‘ziga xon – ko‘lankasi maydon” bo‘lishini anglatmaydi. Yolg‘on axborot tarqatgani, o‘zgalar huquqlariga daxl qilgani uchun qonun oldida javob beradi. Ya’ni ommaviy axborot vositalari o‘zi taqdim etadigan axborotning ishonchliligi uchun javobgardir.

Demak, milliy kontentni har xil oldi-qochdi axborotlar, uzuq-yuluq xabarlar bilan to‘ldirib bo‘lmaydi. Birovga g‘ayirlik, dushmanlik qilib, uning sha’niga “mag‘zava to‘kish”, qadr-qimmatini kamsitish quroliga aylantirish ham mumkin emas. Soha taraqqiyoti uchun eng to‘g‘ri va istiqbolli yo‘l – Prezidentimiz faoliyatining dastlabki davridayoq belgilab bergan yo‘riqqa amal qilish, uni kundalik faoliyatimiz tuzugiga aylantirishdir. Ya’ni ***xalq bilan muloqot, odamlarning orzu-intilishlari, dardu tashvishlari bilan yashash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilayotgan bugungi kunda har bir ommaviy axborot vositasi chinakam muloqot maydonchasiga, erkin fikr minbariga aylangan taqdirdagina biz o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadlarga erisha olamiz...***

Mas’uliyat va intilish

Prezident Shavkat Mirziyoyev kasb bayrami munosabati bilan ommaviy axborot vositalari xodimlariga murojaat qilar ekan, keyingi yillarda yurtimizda so‘z erkinligi va fikrlar xilmaxilligiga erishish yo‘lida keng imkoniyatlar ochilayotgani media vositalari vakillarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, o‘rni va nufuzini yanada kuchaytirayotganini ta’kidlagan edi.

Chindan ham, bugun ommaviy axborot vositalari ijobiy o‘zgarishlar jarayonini boshdan kechirmoqda. Mamlakatimiz sarhadlarida yuz berayotgan har bir voqea-hodisa, yurtdoshlarimiz quvonchu tashvishlari, ularni qiynayotgan muammolarni gazetalarimiz sahifalarida ro‘yirost, xolisona yoritish uchun hech qanday to‘siq yo‘q.

Lekin ommaviy axborot vositalari bunday imkoniyatlardan nechog‘li to‘liq va to‘g‘ri foydalana olyapti, degan savol tug‘iladi va bu bejiz emas.

Davlat rahbarining e’tiroficha, bugungi kunda matbuot ishi, jurnalistlar faoliyati nafaqat “to‘rtinchi hokimiyat”, balki mudofaa, xavfsizlik kabi hal qiluvchi sohaga aylanib bormoqda. Shundan kelib chiqib, bugungi kun sharoitida ommaviy axborot vositalarining roli va ahamiyatini chuqur anglash juda muhim.

Gap bosma ommaviy axborot vositalari haqida boradigan bo‘lsa, avvalo, shuni aytish lozimki, o‘z tarixida avvaliga radio, keyinchalik televideniye timsolida qudratli raqobatchilar bilan to‘qnash kelib, o‘zining axborot makonidagi munosib o‘rnini saqlab qola olgan gazeta va jurnallar, bugun internet degan deyarli cheklanmagan auditoriyaga ega jahon axborot makoni bilan yuzma-yuz turibdi. Bu esa nashrlardan ishga yangicha yondashuvni, o‘quvchilarga yangiliklarni yetkazish bilan cheklanib qolmasdan, voqealarni chuqur tahlil qilishni, muammolarni ko‘tarib chiqib, ularning yechimlari bo‘yicha ham takliflar berishni talab etmoqda. Faqat shu yo‘l bilan biz bugungi jarayonlarning bevosita ishtirokchisi sifatida o‘z mavqeimizni saqlab qolamiz.

Tabiiyki, axborot tarqatish manbalarining transformatsiyasi undan foydalanuvchilarning tanloviga ta’sir ko‘rsatmay qolmadi. So‘rovlar natijasiga ko‘ra, deyarli hamma mamlakatlarda aksariyat respondentlar o‘zi uchun asosiy axborot manbai sifatida eng avval internet-resurslarni, keyin esa televideniye, so‘ngra gazeta-jurnallar va radioni ko‘rsatishadi.

Ammo bu bosma nashrlarga bo‘lgan qiziqish umumjahon miqyosida tushib ketdi, degani emas. Ayniqsa, Osiyo qit’asida davriy nashrlarga talab katta. Dunyodagi 100 nomdagi eng ko‘p sotiladigan kundalik gazetalarning 74 nomdagisi Osiyoda bosilib chiqadi. Shundan 62 tasi – Xitoy, Yaponiya va Hindistonda. Buning ustiga, mintaqada ularning adadi ham o‘sib bormoqda. Ko‘pgina holatlarda bunday o‘sish gazetalarni bepul tarqatish hisobidan ham ta’minlanadi. Shunga qaramay an’ana davom etayotir. Aholi soni eng ko‘p bo‘lgan ushbu qit’ada gazetalarning umumiy adadi 300 million nusxani tashkil etishi ham shundan dalolat.

Texnika taraqqiyoti hayotimizning barcha sohasida namoyon bo‘lganidek, OAVdagi transformatsiya ham o‘z natijalarini bermoqda. Gap faqat uning davlat va jamiyat uchun nechog‘li ahamiyatli ekanida!

Xo‘sh, davlat rahbari jurnalistika haqida gapira turib, nega uning bugungi kundagi ahamiyatini mudofaa va xavfsizlikni ta’minlash bilan qiyosladi, axir axborot tarqatish o‘z holicha hech qanday xavf tug‘dirmaydi-ku. Demak, gap aynan axborotning o‘zida, uning mazmunida. Gap – inson axborotdan, o‘qigan, eshitgan yoki ko‘rgan ma’lumotidan qanday xulosa chiqarishida ekan.

Kuchni to‘g‘ri yo‘naltirish

Barchamizga yaxshi ayonki, fizikada kuchni to‘g‘ri yo‘naltirish narigi jismga ta’sir etishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. E’tibor berilsa, ma’naviy-ma’rifiy jabhada ham xuddi shunday. Sog‘lom tafakkur hosilasi bo‘lgan g‘oyani bunyodkorlik sari safarbar etish beqiyos ezguliklarga, taraqqiyotga poydevor bo‘ladi.

Bugungi kunda “Har qaysi jamiyat hayotida mafkura muhimdir”, degan qarash biroz eskirgandek. Shunday bo‘lsa-da, ko‘pgina mamlakatlarda davlat ayni shu – odamlarga ta’sir ko‘rsatuvchi vositalar ishtirokisiz o‘z oldiga qo‘ygan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyotning eng muhim vazifalarini hal qilishi imkonsiz ekanini, ochiq bo‘lmasa-da, tan olishadi.

Kimdir buni xohlaydimi yo yo‘qmi, butun dunyoda alohida mamlakatlar, alyanslar, bloklar, sinflar, siyosiy partiyalar, ijtimoiy guruhlar o‘rtasida g‘oyaviy kurash har doim bo‘lgan va davom etmoqda. Muayyan mamlakat va butun dunyoning kelajagi qanday bo‘lishi ham ana shu kurashning natijasiga bog‘liq.

Ayrim ekspertlar fikricha, davlat mafkurasi hokimiyat tepasida turgan muayyan ijtimoiy guruhning mafkurasi bo‘lib, o‘sha guruh tomonidan asosiy mafkura sifatida e’lon qilingan bo‘ladi. Lekin har qanday mafkura davlat mafkurasiga aylanar ekan, u hukmron mafkura bo‘lib, boshqa hech qaysi mafkurani tan olmaydigan bo‘ladi. Shungacha borib yetadiki, u bilan kelisha olmaganlarni taqiqlash, qatag‘on qilish, shuningdek, diktatura o‘rnatishgacha olib boradi va bu tarixdan ma’lum.

Sobiq tuzum davrida jamiyatni mafkuralashtirish hayot tartiblarini soxtalashtirishga, ko‘zbo‘yamachiliklarga, zulm va yovuzlikka, alaloqibat qo‘rquv va yolg‘onga asoslangan mustabid saltanatni qurishga zamin bo‘lgandi. Bu saltanatda erkin fikr bo‘g‘ildi, o‘zgacha qarash va tutumlar ta’qibga olindi. Natijada odamlarning qalbini hadik va xavotir egallab oldi. Ularda voqelikka tanqidiy yondashuv, ijodiy munosabat yo‘qoldi. Pirovardida, orzular armonga aylandi. Yuksalish va taraqqiyot quruq safsata bo‘lib qoldi. Insonlar tafakkuri va jamiyatdagi depsinishlar davlatning tanazzuliga sabab bo‘ldi.

Shukrki, O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, hukmron mafkura mavjud emasligi qonunan mustahkamlandi. Bu esa jamiyatda qarashlar xilmaxilligini ta’minlamoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 12-moddasida belgilanishicha, “O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilishi mumkin emas”. Shu bois “mafkura” tushunchasi butun bir davlatning emas, balki u yoki bu ijtimoiy guruhning tizimli, tartibga solingan qarashlari sifatida talqin etiladi.

Qaysi bir mafkuraning ko‘proq ommalashishida esa ommaviy axborot vositalari asosiy o‘rin tutadi. Ular faqatgina atrofda yuz berayotgan voqea-hodisalar haqidagi axborotlarni tarqatish manbai emas. OAV odamlarga ta’sir ko‘rsatish bo‘yicha keng imkoniyatlarga ega, ularning axloqiga, yurish-turishiga ta’sir qiladi, qadriyatlarini shakllantira oladi.

Tarixda ommaviy axborot vositalari tomonidan tarqatilayotgan xabarlar, ilgari surilayotgan g‘oyalarga e’tiborsizlik og‘ir oqibatlarga olib kelgan holatlar ham bo‘lgan. Masalan, 1994-yili Ruandada yuz bergan genotsidga bitta radiostansiyadan tarqatilgan tajovuzkor chaqiriqlar sabab bo‘lgan. Mazkur radio avvaliga ko‘ngilochar kanal sifatida tashkil etilgan bo‘lib, keyin tezda targ‘ibot quroliga aylangan. Bir mamlakatda yashovchi ikki elat o‘rtasida nafrat olovini yoqish oxir-oqibat 800 ming nafar insonning o‘limiga olib kelgan.

Yaqin o‘tmishdan olingan bu misol ommaviy axborot vositalarining kuchiga to‘g‘ri baho berish va bu kuchni bunyodkorlik maqsadlariga yo‘naltirish juda muhim ekanini ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, axborot maydonini sifatli va raqobatdosh milliy kontent bilan to‘ldirish masalasi har qachongidan ham dolzarb.

Kasbga sadoqat va burch taqozosi

Ommaviy axborot vositasining yana bir ustuvor vazifasi – davlat idoralari va ularning mansabdor shaxslari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish, fuqarolarning qonuniy murojaatlarini o‘rganish va hal qilish. Davlat rahbari ta’kidlaganidek, bugungi kunda qurilish, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashdagi kamchiliklar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi muammolar bo‘yicha berib borilayotgan tanqidiy-tahliliy materiallar joylarda mudrab o‘tirgan ayrim rahbar va mutasaddilarni uyqudan uyg‘otib, yangicha ishlab, odamlarning tashvishi bilan yashashga majbur qilmoqda.

To‘g‘ri, ommaviy axborot vositalarining faolligi, jurnalistlarning o‘z kasbiga, burchiga sodiqligi, vatanparvarligi ba’zilarga har doim ham yoqavermaydi. Shu bois ba’zan jurnalistga turli ig‘volar, nohaq iddaolar qilinadi, u soxta ayblov bilan ta’qibga olinadi. Ammo bugun haqiqatgo‘y jurnalist ortida qonun, xalq va ularni o‘zining eng yaqin hamkorlari hamda yordamchilari deb hisoblaydigan Prezident turibdi.

Davlatimiz rahbari bir safar Qashqadaryoga tashrifi chog‘ida ***“Ko‘pchilik menga ommaviy axborot vositalarini “yopishni” taklif qilmoqda, lekin men buni hech qachon qilmayman”***, deb jurnalistlarning erkin faoliyat yuritishi va haqqoniy so‘z aytishiga qarshi bo‘lgan, ularga to‘sqinlik qilayotgan kimsalarga, kuchlarga o‘z fikrini, pozitsiyasini aniq va lo‘nda bildirgandi.

Ayni chog‘da ushbu voqelik nafaqat jurnalistlarni ilhomlantirishi, balki amaldorlarning tahliliy-tanqidiy chiqishlarga munosabatini ham o‘zgartirishi lozim. Katta salohiyatga ega rahbar tanqid uchun jurnalistdan xafa bo‘lmaydi. Aksincha, e’tiboridan chetda qolgan muammoni yoritib bergani uchun minnatdor bo‘ladi, kamchiliklarini tuzatib oladi. Afsuski, hamma rahbarlarni ham shunday deya olmaymiz.

Muammoni qalamga olgan jurnalist jamiyatga va davlatga dushman emas. Muayyan sohadagi kamchilikni ochib berish, rahbarlarning e’tiborini qaratish bilan ularni bartaraf etishga harakat qilish OAV vakilining kasbi taqozosidir.

Ommaviy axborot vositasining vazifalari haqida so‘z ketar ekan, adolatli tanqidni chop etib, dolzarb muammolarni ko‘targanda, ular qanday bartaraf etilayotganini ham yoritishni esdan chiqarmaslik lozim. Mamlakatimizda, ayniqsa, keyingi yillarda iqtisodiyot rivojlanishi, dolzarb ijtimoiy masalalar hal etilishi, odamlarning hayoti yaxshilanib, turmush farovonligi ortishi yo‘lida ko‘p-ko‘p ishlar qilinayotgani shunday deyishimizga asos bo‘ladi.

Mana shunday o‘zgarishlarni o‘quvchilar ommasiga yetkazish, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati, pirovard maqsadlari haqida ma’lumotlar berish, xoh korxonada bo‘lsin, xoh tomorqada bo‘lsin, sidqidildan mehnat qilib, mamlakatimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shayotgan yurtdoshlarimiz haqida hikoya qilish – bular ham jurnalistikaning ajralmas qismi. Bunday materiallar odamlarda kelajakka bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi, yangidan-yangi marralarga ilhomlantiradi. Ommaviy axborot vositalarining qudratli kuchini bunyodkorlik maqsadlariga yo‘naltirishning asl mohiyati ham shundan iborat.

> ***“Gap bosma ommaviy axborot vositalari haqida boradigan bo`lsa, avvalo, shuni aytish lozimki, o`z tarixida avvaliga radio, keyinchalik televideniye timsolida qudratli raqobatchilar bilan to`qnash kelib, o`zining axborot makonidagi munosib o`rnini saqlab qola olgan gazeta va jurnallar, bugun internet degan deyarli cheklanmagan auditoriyaga ega jahon axborot makoni bilan yuzma-yuz turibdi. Bu esa nashrlardan ishga yangicha yondashuvni, o`quvchilarga yangiliklarni yetkazish bilan cheklanib qolmasdan, voqealarni chuqur tahlil qilishni, muammolarni ko`tarib chiqib, ularning yechimlari bo`yicha ham takliflar berishni talab etmoqda. Faqat shu yo`l bilan biz bugungi jarayonlarning bevosita ishtirokchisi sifatida o`z mavqeimizni saqlab qolamiz.”***

...Prezidentimiz ishtirokida ketma-ket uch kun bo‘lib o‘tgan majlislarda qatnashib, ularda Vatanimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligi yo‘lida bildirilgan taklif va tashabbuslar, g‘oyalar menda ana shunday fikr-mulohazalarni, mushohadalarni uyg‘otdi. Eng muhimi, mamlakatimiz istiqboli, navqiron avlodning kelajagi uchun kuyunchaklik, mas’uliyat bugun har birimizning hayotimiz qoidasiga, tuzugiga aylanishi lozimligini yana bir bor chuqur angladik.

Zotan, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, ***yurtimiz taraqqiyotidagi butunlay yangi davrga qadam qo‘ymoqdamiz. Hech shubhasiz, bu davrning qanday bo‘lishi birgalikda o‘z oldimizga qo‘ygan ulkan maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirishimizga bog‘liq.***

Ishonchimiz komil, bu – Yangi O‘zbekistonimiz jadal rivojlanadigan, yanada yuksak taraqqiyot cho‘qqilarini zabt etadigan davr bo‘ladi. Bu davr parlament va Hukumat faoliyatida yangicha ishlash, xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish bo‘yicha ibratli an’analar shakllanadigan va tarixga muhrlanadigan davr bo‘ladi.

Kelajak avlodlar, albatta, faxr bilan tilga oladigan ana shunday buyuk tarix va kelajakni yaratish bizning o‘z qo‘limizda.

O‘tkir RAHMAT.

KONSTITUTSIYAVIY YANGILANISHLAR

zamirida “Inson qadri uchun” tamoyili mujassam

Navoiy ijodida inson qadrini ulug‘lash butun kishilik jamiyati tomonidan e’tirof etilgan falsafiy qarashlar bilan uzviy bog‘lanib ketgan. Uning asarlarida inson borliqdagi eng sharafli, o‘xshashi yo‘q mavjudot bo‘lib, hatto borliqning yaratilishi ham aynan inson tufayli ekanligi bayon etiladi.

Hazrat Navoiy odamlarga naf keltirish, ularga yaxshilik qilish, miskinlarga ko‘mak berish, avvalo, insonni o‘ziga qilgan yaxshiligi, deb hisoblaydi. Shuning uchun ham buyuk mutafakkir shunday yozadi:

Naf’ing agar xalqqa beshak durur,
Bilki bu naf o‘zingga ko‘prok durur.



She’riyat mulkining sultoni o‘zining butun umri davomida yozgan asarlari, vazirlik martabasida olib borgan faoliyatini inson qadrini ulug‘lash, uning dardi bilan yashab o‘tishga bag‘ishlagan.

Bugun mamlakatimiz Prezidenti olib borayotgan siyosat zamirida hazrat Navoiyning *“Odami ersang demagil odami, Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami!”* degan buyuk g‘oyasi mujassam, desak, ayni haqiqat.

Ta’kidlash joizki, inson, avvalo, jamiyatda adolat bo‘lgandagina o‘z qadrini topadi. Adolatli jamiyat, bu – qonun ustuvor bo‘lgan mamlakatdir. Ushbu muhim tamoyillar yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida asosiy o‘rin egallaydi. Bu ham bejiz emas. Boisi ushbu asosiy hujjat oldingilaridan farqli o‘laroq inson huquq va manfaatlarini ulug‘lashga qaratilgan moddalar bilan yanada boyidi.

Konstitutsiyaning asosiy prinsiplaridan biri O‘zbekistonda Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi so‘zsiz tan olinishidir. Shuningdek, davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Bosh qomus va qonunlarga muvofiq ish ko‘rishi kerak. Birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas.

Mazkur konstitutsiyaviy norma, yuridik hamda jismoniy shaxslarning huquq va majburiyatlarini belgilash, o‘zgartirish hamda bekor qilishga qaratilgan umummajburiy xarakterdagi ko‘rsatmalarni o‘z ichiga olgan rasmiy hujjat hisoblanadigan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladigan idoralar va mansabdor shaxslar oldiga bir qator mas’uliyat yuklaydi. Zero, milliy davlatchiligimizning qaror topishi, bozor munosabatlarining kundan-kunga rivojlanishi, davlat organlari o‘z funksiyalarini samarali amalga oshirishi, eng asosiysi, davlat bilan shaxs o‘rtasidagi munosabatlarning huquqiy tartibga solinishi, shuningdek, mamlakatimiz dunyo hamjamiyatida munosib o‘rnini topishida normativ-huquqiy hujjatlarning ahamiyati katta.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyatini yanada takomillashtirish, uning vakolatlarini kengaytirish borasida katta islohotlar olib borilayotgani ham shundan dalolat.

Fikrimiz dalili sifatida so‘nggi yetti yil ichida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyatini takomillashtirish borasida amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlarga e’tiboringizni qaratsak.

Masalan, 2017-yilga qadar amalda bo‘lgan Asosiy Qonunga muvofiq, Konstitutsiyaviy sud 4 ta vakolatga ega bo‘lgan bo‘lsa, 2017-yilda Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalarga asosan, Konstitutsiyaviy sud yana qo‘shimcha 3 ta vakolatga ega bo‘ldi. O‘tgan yilning 30-aprel kuni umumxalq referendumi asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 133-moddasiga asosan esa Konstitutsiyaviy sudga yangi vakolatlar berildi.

Endilikda mamlakatimizning konstitutsiyaviy nazorat organi kelgusida referendumga chiqarilayotgan masalalarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa beradi. Shuningdek, yangilangan Konstitutsiyada konstitutsiyaviy shikoyat instituti nazarda tutilib, endilikda fuqarolar va yuridik shaxslar, agar sud orqali himoya qilishning boshqa barcha vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, sudda ko‘rib chiqilishi tugallangan muayyan ishda sud tomonidan o‘ziga nisbatan qo‘llanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligi to‘g‘risidagi shikoyat bilan Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqiga ega bo‘ldi. Mazkur konstitutsiyaviy islohotlarning zamirida esa “Inson qadri uchun” tamoyili mujassam.

Davlatimiz rahbari yaqinda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan majlisida so‘zlagan nutqida **“Bugun xalqimiz bilan yurtimiz taraqqiyotidagi butunlay yangi davrga qadam qo‘ymoqdamiz. Ishonchim komil, bu – Yangi O‘zbekistonimiz jadal rivojlanadigan, yanada yuksak taraqqiyot cho‘qqilarini zabt etadigan davr bo‘ladi. Bu davr parlament va hukumat faoliyatida yangicha ishlash, xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish bo‘yicha ibratli an’analar shakllanadigan va tarixga muhrlanadigan davr bo‘ladi!”** deb alohida ta’kidladi.

Demak, “Inson qadri uchun” tamoyiliga asoslangan ulkan islohotlar o‘zining sharafli yo‘lidan ortga qaytmaydi. Buning uchun esa barchamiz bir tanu bir jon bo‘lib vijdonan mehnat qilishimiz lozim. Bu yo‘lda barcha kuch va salohiyatimizni namoyon etib, Vatan taraqqiyoti va xalq farovonligini ta’minlashga o‘z hissamizni qo‘shamiz.

Abdumannob RAHIMOV,
O‘zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyaviy sudi sudyasi.

Bugun navbatdagi “Avtomobilsiz kun” aksiyasi bo‘lib o‘tadi.

QISHNING KUNI QIRQ TURLI, QIRQOVI HAM QILIQLI...

Xalqimizda topib aytilgan bu maqol mazmunidan anglashiladiki, qishning bir kuni ham qish. Nafaqat 90 kun, balki shu bir kuniga ham tayyor turmaslik turli ko‘ngilsizlikka sabab bo‘lishi mumkin.

Ayni paytda kuzning so‘nggi oyida havo sovib, qishning yomg‘irli-qorli, izg‘irin kunlari yaqinlashayotganidan darak bermoqda. Afsuski, har yili mamlakatimizda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik yoz oylaridan boshlansa-da, havo harorati pasayganda muammolar ko‘payishni boshlaydi. Xususan, elektr ta’minotidagi uzilishlar, issiqlik tizimlari ishdan chiqishi, ko‘p qavatli uylar tomidan chakki o‘tishi va boshqa muammolar odamlarni qiynab qo‘yadi.

Xo‘sh, bu yil mavsumga qanday tayyorgarlik ko‘rildi? O‘tgan yillardagi ko‘ngilsiz voqealardan xulosa chiqarildimi? Ijtimoiy obyektlar va aholi xonadonlari, ko‘p qavatli uylarda qishga tayyorgarlik ishlari qay yo‘sinda olib borildi?

Muxbirimiz Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi hamda Energetika vazirligi tizimidagi “Issiqlik elektr stansiyalari” aksiyadorlik jamiyati mutaxassislariga shu savollar bilan yuzlandi.

Mutaxassis nima deydi?

Taraddud ko‘ngildagidek, lekin...

Solijon QO‘SHAQOV,
Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi mas’ul xodimi:



– Bu yilgi qish mavsumida issiqlik uzatish tizimlarida hech qanday uzilish yoki buzilish bo‘lmaydi, deya aytolmayman. To‘g‘ri, tayyorgarlik ko‘ngildagidek amalga oshirildi. Mavjud obyektlarda ta’mirlash va yangilash kabi yumushlar o‘z vaqtida sifatli bajarildi. Bu jihatdan ko‘nglimiz to‘q.

Lekin baribir qish qishligini qiladi. Agar havo harorati keskin pasayib ketsa, qo‘shimcha manbalardan foydalangan holda issiqlik haroratini pasaytirmaslikka harakat qilamiz. Mabodo issiqlik quvurlari yorilish holati yuz bersa, uni zudlik bilan bartaraf etamiz. Bunday favqulodda holatlarga ham doim tayyormiz.

Hozirgi kunda yurtimizda 42 340 ta ko‘p kvartirali uy mavjud. Ularni joriy va mukammal ta’mirlash, lift uskunalarini yangilash hamda ularga xizmat ko‘rsatishni ta’minlash, boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirishga e’tibor qaratildi.

Joriy yilda bir qator loyihalar doirasida o‘nta qozonxona qurilib, 14 ta qozon to‘liq o‘rnatildi. Shu bilan birga, 63,4 km. issiqlik tarmoqlarini qurish va montaj ishlari yakunlandi. Loyihalarning aksariyati yildan-yilga o‘tuvchi bo‘lib, yettita obyektda, ya’ni Buxoro va Termizda ikkitadan, Qarshida, Guliston va Tuproqqal’ada bittadan qozonxona foydalanishga topshirildi.

Natijada hududlardagi 261 ta ko‘p qavatli uylar va yigirmadan ziyod ijtimoiy soha obyektlarida issiqlik energiyasi ta’minotini yaxshilash ko‘zda tutilgan. Bugungi kunga kelib respublikaning barcha hududida kuz-qish mavsumi boshlangan bo‘lib, bino hamda inshootlarga issiqlik energiyasi yetkazib berilmoqda.

Yilning to‘rt faslida ham zarur

Bobur BOYZOQOV,
Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari:

– Aholiga zarur qulayliklar yaratish zimmamizdagi eng muhim vazifalardan. Shu bois turarjoylarda xizmat ko‘rsatish sifatini yanada takomillashtirish, xususan, raqamlashtirishga ustuvorlik qaratilyapti.

Masalan, bu yil “Mening uyim” billing tizimi joriy qilindi. Bu bilan ko‘p kvartirali uylarga tutash hududlarda qurilayotgan noqonuniy qurilmalar to‘g‘risida xabardor qilish, billing tizimining mobil ilovasi hamda veb-sayt versiyalari orqali “Yagona mijoz” tamoyili asosida barcha kommunal to‘lovlar balansini ko‘rish hamda to‘lovlarni amalga oshirish imkoniyatlari yaratildi.

Shuningdek, “Turarjoy” milliy axborot tizimi yaratilib, unga uylarning texnik holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar kiritiladi. Aholining murojaatlari to‘liq “Mening uyim” tizimi orqali boshqaruv servis kompaniyalari (BSK)ga yuboriladi va vazirlik tomonidan ularning ijrosi kuzatib boriladi. Aholi tomonidan BSK faoliyati to‘g‘risida shikoyat hamda mulohazalar “Mening uyim” tizimi orqali yuboriladi hamda aholining mulohazalari asosida ularning reytingi shakllantiriladi.



Respublikaning barcha hududida ko‘p kvartirali uylarning lift uskunalarini monitoring qilish maqsadida “Xavfsiz lift” yagona idoralararo platformasi ishlab chiqiladi. Ko‘p kvartirali uylarning yerto‘lalarini ijaraga berish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni unikal kod berish orqali “Mening uyim” billing tizimiga kiritiladi va Davlat soliq qo‘mitasi bazasi bilan integratsiya qilinadi.

Aytmoqchimanki, raqamlashtirish faqat qish oyida xabardor etish vositasi bo‘lib qolmay, unga yilning to‘rt faslida ham zaruriyat tug‘iladi. Ayniqsa, sovuq kunlar boshlanayotgan paytda yuz berayotgan “avariya” holatlarini tez bartaraf etishda, issiqlik, elektr tizimida uzilishlar yuzaga kelganda uning ahamiyati nihoyatda beqiyos.

MAVSUMNI BETALAFOT O‘TKAZISHGA QARATILGAN CHORALAR



Fakt va raqamlar

Joriy yil kuz-qish mavsumini betalafot o‘tkazish maqsadida zarur choralar ko‘rilmoqda. Xususan:

- qish faslida iste’molchilarga **21 milliard** kubometr gaz yetkazib berish hisob-kitob qilingan;
- mavsumga tayyorgarlik bo‘yicha har bir mahalladagi haqiqiy ahvol o‘rganilib, tumanlar kesimida dastur ishlab chiqildi. Tayyorgarlik ishlariga o‘tgan yilgi **14 trillion so‘m**ga qo‘shimcha yana **14 trillion so‘m** ajratilishi belgilandi.

Shuningdek, ishni eng og‘ir mahallalardan boshlab yil yakunigacha **30 ming** kilometr tarmoq, **10 mingta** transformatorni yaxshilash choralari ko‘riladi.

Foydali va tejamkor qurilmalar

Alisher JO‘RAYEV,
Energetika vazirligi tizimidagi “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ Xalqaro aloqalar va investitsiyalarni jalb qilish boshqarmasi boshlig‘i:

– Jamiyatimiz tomonidan o‘tgan yilda sinov tariqasida investitsiya loyihasi asosida Turkiyaning “Iltekno” kompaniyasi bilan hamkorlikda Toshkent shahrining Chilonzor tumanidagi Oqtepa va Bog‘zor mahallalari hududida kogeneratsiya qurilmasi bunyod etildi.

Mazkur qurilma bir vaqtning o‘zida ham issiqlik, ham elektr energiyasi ishlab chiqarishga moslashgan bo‘lib, soatiga 4,6 MVt elektr energiya hamda 29 Gkal issiqlik energiyasi hosil qiladi. Qurilma hududdagi 50 ta ko‘p qavatli uy, 7 ta ijtimoiy muassasa va o‘nlab tadbirkorlik subyektlarini barqaror issiqlik hamda elektr energiyasi bilan ta’minlab kelmoqda.

Loyihaning yana bir e’tiborli jihati – issiqlik taqsimlash punktlari maxsus datchiklar bilan jihozlangan. Havo sovib yoki isib ketishiga qarab, uy ichidagi harorat mo‘tadil saqlab turiladi. Majmua ishga tushirilishi natijasida yiliga 5,3 mln. metr kub tabiiy gaz iqtisod qilinishiga erishilyapti.

Ayni paytda bu kabi samarali loyihalarni ommalashtirishga kirishildi. Ayni paytda Toshkent shahrining oltita tumanida kogeneratsiya qurilmalarini joriy etish ishlari olib borilmoqda. Xususan, Olmazor tumanida elektr energiya ishlab chiqarish quvvati 1,2 MVt hamda issiqlik energiyasi ishlab chiqarish quvvati 6,4 Gkal bo‘lgan zamonaviy kogeneratsiya qurilyapti. Ushbu loyiha ishga tushirilishi natijasida yiliga 8 mln. kVt/soat elektr energiya hamda 52 ming Gkal issiqlik energiyasi ishlab chiqariladi. Qurilma ishga tushgach, hududdagi yigirmaga yaqin ko‘p qavatli uylar, ijtimoiy soha va bir qator tadbirkorlik subyektlari barqaror issiqlik energiyasi bilan ta’minlanadi.



Faxriddin BOZOROV (“Xalq so‘zi”) yozib oldi.

P.S. Mutaxassislarning so‘zlaridan ko‘rinib turibdiki, bu yil qishga tayyorgarlik bo‘yicha soha xodimlari ancha-muncha “ter” to‘kishgan. Ammo raqamlar har doim ham amaliy ish bilan mutanosib bo‘lmasligi qirchillama qish chillasida bilinib qolyapti. Xo‘sh, bu yilgi sovuq mavsumda simob ustuni me’yordan anchagina pastlab ketganda aholida norozilik kayfiyati uyg‘onmaydimi? Uylarimiz issiq va charog‘on bo‘ladimi? Bu bugun intervyu bergan mutaxassislar fikri o‘zini oqlashiga har tomonlama bog‘liq. Yanayam aniqroq aytsak, vaqt odil hakam. Bu mavzuga esa hali yana qaytamiz.

Bor salohiyat ishga solindi

G‘olib SALIMYOROV,
Energetika vazirligi tizimidagi “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ ishlab chiqarish boshqarmasi boshlig‘i:



– Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan elektr va issiqlik energiyasining asosiy qismi issiqlik elektr stansiyalari hissasiga to‘g‘ri keladi. Aksiyadorlik jamiyatimizda qish mavsumiga tayyorgarlik doirasida filial va tizim korxonalarida reja asosida 53 ta, jumladan, energoblok, qozon va bug‘-gaz, turboagregat hamda gaz-turbina qurilmalarida ta’mirlash ishlari amalga oshirildi.

Elektr stansiyalaridagi tezkor guruhlar tomonidan kamchiliklar aniqlangan o‘ndan ziyod energoqurilmada mukammal hamda joriy ta’mirlash ishlari olib borildi. Natijada mavjud elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatlari 291 MVt va issiqlik ishlab chiqarish samaradorligi 235 tonna/ soat oshirilishiga erishildi.

Shuningdek, AJ tizimiga kiruvchi “Toshkent issiqlik markazi” korxonasi qozonxonalari ham mavsumga shay holatga keltirildi. Mazkur korxona tizimida o‘nga yaqin issiqlik markazlari mavjud bo‘lib, ularning umumiy o‘rnatilgan quvvati 4580 gigakaloriyani tashkil etadi. Hozirgi kunda iste’molchilarga 65 daraja, sovuq qish kunlarida 85 daraja haroratdagi issiqlik energiyasi ishlab chiqarilib, yagona yirik xarid qiluvchi Veolia Energy Tashkent korxonasi orqali aholi va boshqa iste’molchilarga yetkazilmoqda.

Joriy yilgi kuz-qish mavsumida iste’molchilarning issiqlik energiyasiga bo‘lgan talabini to‘laqonli qondirish maqsadida mavsumga tayyorgarlik ishlari shu yilning mart oyidan boshlanib, hozirda barcha qurilmalar mavsumga shay holatga keltirildi. Xususan, yetmishdan ortiq qozon qurilmalari hamda 239 ta nasos agregatida mukammal va joriy, 420 ming metr bo‘lgan ichki quvurlar va yordamchi uskunalarning issiqlik saqlash qoplamalarida mukammal ta’mirlash ishlari amalga oshirildi.

YANGILIKLAR *xabarlar*

TAFSILOTLAR

Atom energiyasidan xavfsiz foydalanish strategiyasi ishlab chiqiladi

Shu yil 5-dekabr kuni Samarqand shahrida “Islom hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlarning barqaror rivojlanishida atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish istiqbollari: xalqaro va milliy tajriba” mavzuida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tadi.

Anjuman xususiy va davlat korxonalari, atom energetikasi sohasidagi mahalliy hamda xorijiy olimlarni bir joyda jamlaydi. Shuningdek, tadbirda Islom hamkorlik tashkiloti, Markaziy va Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hamda Rossiya va AQShdan yetakchi ekspertlar ishtirok etishi kutilmoqda.

Mazkur tadbirda o‘zaro hamkorlik yanada mustahkamlanadi hamda atom energiyasidan xavfsiz foydalanish strategiyasi ishlab chiqiladi.

Harbiy sportchilarimiz – shohsupada



18 – 23-noyabr kunlari Turkiyaning Antaliya shahrida sportning kikboksing turi bo‘yicha o‘tkazilgan harbiylar o‘rtasidagi jahon chempionatida munosib ishtirok etib, g‘olib va sovrindor bo‘lgan sportchilarimiz Toshkent xalqaro aeroportida tantanali kutib olindi.

Tadbirda marosim qatnashchilari tomonidan sportchilarimiz matonati hamda ko‘rsatgan natijasi e’tirof etildi.

Mudofaa vazirligi departamenti xabariga ko‘ra mazkur chempionat Xalqaro harbiy sport kengashi taqvimidan o‘rin olgan bo‘lib, unda dunyoning o‘ndan ortiq davlatlaridan 110 nafardan ziyod sportchilar g‘oliblik uchun kurash olib bordi.

Sportchilarimiz “Full contact” va “Low kick” yo‘nalishlarida bahs olib borib, yakunda 20 ta (3 ta oltin, 9 ta kumush, 8 ta bronza) medallar shodasi bilan umumjamoa hisobida faxrli uchinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi.

“Ma’rifat karvoni” safar oldida

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Islom sivilizatsiyasi markazi va Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tashabbusi bilan 2 – 7-dekabr kunlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘ylab “Tamaddun, madaniyat va ma’rifat” mavzuida “Ma’rifat karvoni” ilmiy-ma’rifiy targ‘ibot tadbirlari o‘tkaziladi.

Bu haqda mazkur yangi loyihaga start berilishi oldidan o‘tkazilgan tadbirda aytib o‘tildi.

Qayd etildiki, “Ma’rifat karvoni” doirasida “Anvorul-Qur’on: “Fayzul-Furqon” nomli Qur’oni Karimning o‘zbek tilidagi yettinchi tarjimasi, shuningdek, Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy kabi islom olamining yetuk olimlari haqidagi hujjatli va animatsion filmlar taqdimoti bo‘lib o‘tadi.

O‘zbekiston madaniy merosini o‘rganish, saqlash hamda ommalashtirish bo‘yicha Butunjahon jamiyatining “O‘zbekiston madaniy merosi jahon to‘plamlarida” kitob-albomlari yurtdoshlarimizga tuhfa etiladi.

“Xalq so‘zi”.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Devoni jamoasi Davlat byudjeti boshqarmasi boshlig‘i To‘lqin Eshnazarovga volidai muhtaramasi **Musharram ESHNAZAROVA**ning vafoti munosabati bilan chuqur hamdardlik izhor etadi.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyati tekshirilganda Biznes-ombudsman xabardor etiladi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-1142. 11 728 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir Z. Xudoyshukurov.
Musahhih S. Islomov.

ISSN 2010-8788

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 01.11 Topshirildi — 02.10 1 2 3 4 5 6